



POLITICAL ANALYSIS OF FACTORS THREATENING THE SECURITY OF CENTRAL ASIA

Jakhongir Boybutayev

PhD, Associate Professor

*Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, security, separatism, extremism, terrorism, radical Islam, radical groups.

Received: 16.01.25

Accepted: 18.01.25

Published: 20.01.25

Abstract: The article provides a political analysis of the problems that arose in Central Asia at the end of the 20th century and the problems that emerged in the region under their influence, related to social, economic, political and religious factors. The article also provides a historical and retrospective analysis of internal and external factors that influenced the Central Asian region.

MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIGIGA TAH DID SOLUVCHI OMILLARNING SIYOSIY TAHLILI

Jahongir Boybutayev

PhD, dotsent

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, xavfsizlik, separatizm, ekstremizm, terrorizm, radikal islom, radikal guruhlar.

Annotatsiya: Maqolada XX asrning so'ngida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan siyosiy bo'g'ronlar va uning ta'sirida mintaqada ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy omil bilan bog'liq paydo bo'lgan muammolar siyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'sir qilgan ichki va tashqi omillarning tarixiy-retrospektiv tahlili yoritib beriladi.

ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, УГРОЖАЮЩИХ БЕЗОПАСНОСТИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Жахонгир Бойбутаев

PhD, доцент

Академии МВД Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, безопасность, сепаратизм, экстремизм, терроризм, радикальный ислам, радикальные группы.

Аннотация: В статье проводится политический анализ проблем, возникших в Центральной Азии в конце XX века, и проблем, появившихся в регионе под их влиянием, связанных с социальными, экономическими, политическими и религиозными факторами. Также в статье представлен историко-ретроспективный анализ внутренних и внешних факторов, оказавших воздействие на Центральноазиатский регион.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida Markaziy Osiyo davlatlari zamonaviy tahididlarga qarshi kurash yo‘lida mintaqaviy xavfsizlikning samarali mexanizmlarini yaratishlari muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mintqa mamlakatlari xavfsizlik sohasidagi hamkorliklari zamonaviy taxdidlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, SSSR parchalangach, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ichki va tashqi omillar ta’sirida bir qancha siyosiy voqealar sodir bo‘ldi. Aynan o‘sha davrdagi siyosiy beqarorliklarning din omili bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlari hali hamon mintaqada saqlanib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni yoritishda Ye.Ionova, A. Kazansev, A.Iskandarov, Yu.Aleshin, Sh.G‘oyibnazarov kabi olimlarning tadqiqot ishlari diqqatga sazovordik. Chunki, ushbu olimlarning izlanishlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarining xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mavzuni yoritishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, mantiqiylik, tizimlilik kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. XX asr oxiriga kelib Markaziy Osiyo mamlakatlari siyosiy bo‘hronlarni boshidan kechirdi. Mintaqada turli kuchlarning manfaatlari va mafkuralari sinkretlashgan holda to‘qnashdi. Ayniqsa, din niqobi ostidagi ekstremistik va terroristik gururuuhlar SSSRning tarkibida bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlarini sovuq urushidan keyingi taqdirini din omili bilan bog‘lashga harakat qildilar. Mintqa aholisi ongidagi mafkuraviy bo‘shliqni islom qadriyatlariga zid bo‘lgan aqidaparastlik g‘oyalari bilan to‘ldirishga urinish kuchaydi. Bu haqida rossiyalik tarixchi olim Ye.Ionovaning: “Markaziy Osiyo mamlakatlarida terrorchilik xavfi darajasi barcha postsoviet yillari davomida yuqori bo‘lgan. Bu ko‘p jihatdan ichki tartib omillari - radikal islomchilik, etno-milliy separatizm, uyushgan jinoyatchilik,

narkotiklar va qurol-yarog‘larning noqonuniy aylanishi, noqonuniy migratsiya vujudga kelishiga zamin yaratuvchi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining past darajasi; ko‘pincha siyosiy ekstremizmdan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanadigan urug‘-aymoqlar kurashi; diniy va madaniy o‘zlikni anglashning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq. Vaziyat xalqaro islomiy tahdid o‘choqlariga yaqinligi bilan yanada og‘irlashmoqda” [1. – C. 60] – degan so‘zi ham fikrimizni isbotlaydi.

Darhaqiqat, Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy, geografik, siyosiy va ijtimoiy murakkabliklar mavjud mintaqqa hisoblanadi. Mintaqaning aksariyat davlatlarida aholi farovonligining past darajada ekanligi, ishsizlik muammolarining mavjudligi radikal islom, etno-milliy separatizm hamda jinoyatchilikka yoshlarni jalg qilish uchun zamin yaratdi. Sovet Ittifoqi parchalangach, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlari o‘rtasidagi chegara muammolari, shu bilan birga, Farg‘on vodiysi hududida turli millat vakillarining manfaatlari kesishganligi ushbu viloyatda va uning chegara hududida terrorchi guruhlarning urchib ketishiga imkon yaratib berdi.

Ayniqsa, Sovet Ittifoqi davrida mustamlaka bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida sekulyarizatsiya siyosatining noto‘g‘ri ishlaganligi o‘tish davrida mintaqada islomiy qadriyatlarga qaytish orqali ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarga yechim topish mumkin degan fikr paydo bo‘ldi. Aholida islomiy qadriyatlarga qiziqish kuchayib, din omili nazoratsiz qolganligi mintaqada radikal guruhlarning doktrinalari ishlashiga sharoit tug‘dirdi. Mintaqqa ahonisining diniy ehtiyoji mavjud bo‘lsa-da, biroq ommaviy ta’lim tizimining isloh qilinmaganligi hamda aholining diniy bilimi yetarli bo‘lmasligi radikal ta’limotlarni osongina qabul qilishlariga turtki bo‘ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida taxdidlar ko‘lamini yildan-yilga kengayib borayotganligini hamda G‘arbning Markaziy Osiyodagi xavfsizlik siyosatining turli jihatlarini tahlil qilgan rossiyalik tarixchi olim Andrey Kazansev: “Asosiy transchegaraviy tahdid va xatarlarning ba’zilari, ayniqsa, mintaqaga tashqi kuchlarni faol jalg qilayotgan tahdidlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bular, eng avvalo, narkoijtisodiyot, terrorizm va diniy ekstremizm, “shakllanmagan davlatlar” va noqonuniy migratsiya” [2. – C. 47] – deb urg‘u beradi.

Tojikistonlik siyosatshunos olim Aleshin Yuryining “Postsoviet hududidagi yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligi (Markaziy Osiyo mamlakatlari hujjalari asosida)” mavzusidagi ilmiy izlanishlarida ham dunyoning hech bir davlati o‘z kuchi bilan bartaraf eta olmaydigan yangi avlod tahdidlari, jumladan separatizm va millatchilik, xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, yashirin narkotik moddalar savdosi, noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi, shu jumladan

ommaviy qirg‘in qurollari, atrof-muhit tanazzuli, noqonuniy migratsiya kabi muammolar tahlil qilinadi [3].

Markaziy Osiyo mintaqasidagi tahdidlar va xavfsizlik masalalari haqida so‘z borganda, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” [4] nomli asarida quyidagi tahidlarni sanab o‘tadi:

- mintaqaviy majorolar;
- diniy ekstremizm va fundamentalizm;
- buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik;
- etnik va millatlararo ziddiyatlar;
- korrupsiya va jinoyatchilik;
- mahalliychilik va urug‘-aymog‘chilik munosabatlari;
- ekologik muammolar [4].

Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” asarida sanab o‘tilgan tahdidlar, mintaqadagi muammolar sifatida keltirib o‘tiladi. Xususan, diniy ekstremizm va fundamentalizm O‘zbekiston mustaqilligi uchun katta tahdid deb baholagan. Uning rejimida davlatning dunyoviyligini saqlab qolish asosiy vazifalardan biri bo‘lgan. Bu tahdidning kuchayishi, asosan, 1990-yillarda “Hizb ut-Tahrir al-Islomiy”, “Islomiy harakat” kabi tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘langan.

Sovet Ittifoqi parchalangandan so‘ng, millatchilikning yangi ko‘rinishdagi shakllari paydo bo‘ldi. Rossianing sobiq respublikalarga nisbatan “Buyuk davlatchilik” g‘oyalarining qaytadan tiklanish xavfi Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqilligiga tahdid sifatida baholandi. Islom Karimov o‘tish davrida O‘zbekistonda milliy o‘zlikni shakllantirishda adolat va tenglik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikka alohida ahamiyat berib, shovinistik qarashlarga zarba berdi. Ayniqsa, etnik tarkibi murakkab hudud hisoblangan Farg‘ona vodiysidagi nizolar, davlat uchun xavf tug‘diruvchi omil sifatida prognozlandi. Masalan, Farg‘ona vodiysida 1989-yildagi o‘zbek-mesxeti turklari bo‘lib o‘tgan ziddiyatlar O‘zbekiston uchun og‘ir ijtimoiy jarayonlarni keltirib chiqardi.

Karimov, huquq-tartibot idoralarining faoliyatini kuchaytirishga hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga alohida ahamiyat berdi. Mahalliychilik va urug‘-aymog‘chilik munosabatlari O‘zbekistonda ijtimoiy va siyosiy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qaralgan. Islom Karimov tomonidan sanab o‘tilgan tahdidlar mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston davlatchiliginи barqaror qilishga qaratilgan siyosiy strategiya sifatida qaraladi. Bu

esa, XXI asrda Markaziy Osiyodagi barqarorlik va taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omilllar ko'lami keng ekanligidan dalolat berdi.

Siyosatshunos olim Shuhrat G'oyibnazarovning ta'biringa ko'ra: "SSSR parchalangach, Markaziy Osiyo atrofidagi geosiyosiy vaziyat jahon xaritasida yuzaga kelgan o'zgarishlar bilan bog'liq holda jiddiy o'zgardi. Jahon siyosati subyektlari o'zlarining Markaziy Osiyoga qiziqishlarini hisobga olib, mintaqaga nisbatan kuchlar parallelogrammasini hosil qilishdi. Bunda bir tomonda – Rossiya, ikkinchi tomonda – Xitoy, uchinchi tomonda – islom dunyosi, to'rtinchi tomonda – G'arb turardi.

Umuman olganda, SSSR parchalanganidan keyingi davrda Markaziy Osiyodan manfaatdor bo'lgan tashqi kuchlar siyosatida yirik davlatlar (AQSH, Rossiya, Xitoy) manfaatlari oldingi marraga chiqdi va ekstremizm faollashdi. "O'yinda qatnashuvchi" asosiy davlatlarga ularning tarixiy raqobatchilari bo'lgan Turkiya, Eron, Hindiston va Pokiston ham qo'shilishni istab qoldiki, bu holat mintaqada keskinlikni o'z-o'zidan keltirib chiqardi" [5. – B. 168-169].

2020 yilgi G'arb ekspertlarining tahvilida Markaziy Osiyodagi vaziyatni belgilovchi global omillarning uchta asosiy guruhi ajratib ko'rsatiladi, Jumladan:

- 1) G'arb va G'arbiy bo'lмаган мamlakatlar iqtisodiyotlari hajmi va kuchlarining umumiyligi nisbatidagi tub o'zgarishlar;
- 2) eski industrial mamlakatlarning ("global Shimol") demografik pasayishi va rivojlanayotgan mamlakatlarda ("global Janub") aholining keskin o'sishi;
- 3) islom ekstremizmi va xalqaro terrorizmning kuchayishi [2. – C. 53].

Darhaqiqat, ushbu uch omil Markaziy Osiyoga tahdid tug'diradigan hamda mintaqada ijtimoiy, siyosiy va diniy nizolarni keltirib chiqaradigan omillar hisoblanadi.

Tojikistonlik siyosatshunos olim Akbarsho Iskandarov Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligiga ta'sir qiluvchi ichki hamda tashqi omillar mavjud degan holda, tashqi omillarga quyidagilarni sanab o'tadi:

- "uch yovuz kuch": xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va etnik separatizmning tarqalishi;
- mintaqqa chegaralariga bevosita yaqin bo'lgan beqarorlikning mavjud va potensial o'choqlari (Afg'oniston, Iraq, Hindiston-Pokiston mojarosi, Kaspiy muammosi);
- globallashuv bilan bog'liq ba'zi mintaqqa davlatlarining orqada qolishi;
- qayta jonlangan "Katta o'yin"dagi asosiy geosiyosiy o'yinchilarining xatti-harakatlari va ular o'rtasidagi munosabatlari ("Yangi Ipak yo'li" mega-loyihasiga davlatlarning turli qarashlari);
- narkotik moddalar noqonuniy aylanishi va qurol-yarog' kontrabandas;
- mintaqqa hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari mavjudligi;

- xalqaro aktyorlarning (ya’ni buyuk davlatlar deb ataluvchi) - AQSH, Rossiya va Xitoyning faollashuvi;

- musulmon dunyosidagi ziddiyatlar, xususan, islomning turli oqimlari: vahobiylilik, salafiylik, Markaziy Osiyo uchun an’anaviy bo‘lgan hanafiy mazhabidagi sunniylik va boshqalar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi;

- radikal islomchilar (“Al-Qoida”, O‘IH (“O‘zbekiston Islom harakati”), “Hizb ut-Tahrir”, “Sharqiy Turkiston mustaqilligi uchun harakat” va boshqalar) ning faollashuvi va ularning Afg‘oniston-Markaziy Osiyo chegaralarida to‘planishi...” [6. – C. 19-20].

Akbarsho Iskandarovning yuqoridagi keltirib o‘tilgan fikrlarida Markaziy Osiyo mintaqasining xavsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning to‘liq qamrab olinganligi mintaqada milliy va etnik ixtiloflar, diniy muammolar hali hanuz saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Ekstremizm, terrorizm kabi xavflar davlatlarning ichki siyosatida sekulyarizm va diniy erkinlik o‘rtasidagi muvozanatga erishishda bir qator muammolarni paydo qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bois, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar tashqi xavflarga qarshi kurash borasida strategiya ishlab chiqqan holda mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishlari lozim bo‘ladi. Shuningdek, halqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ysalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Akbarsho Iskandarov o‘z fikrini davom ettirgan holda mintaqaga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar bilan birga ichki omillar ham mavjud deb, unga quyidagilarni keltirib o‘tadi:

- ichki va millatlararo ziddiyatlar;
- siyosiy beqarorlik;
- davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida saqlanib qolayotgan inqirozli tendensiyalar;
- hududiy nizolar va chegaraoldi mojarolar;
- transmilliy uyushgan jinoyatchilik;
- noqonuniy migratsiya;
- energiya resurslari tarkibidagi farqlar va suvdan foydalanish muammolari;
- noan’anaviy yadro quroli ishlab chiqarish va sinovlarining ekologik xavflari, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning degradatsiyasi va boshqalar” [6. – C. 20].

Umuman olganda, Markaziy Osiyodagi tahidilar xususidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mintaqadagi xavf-hatarlar ko‘lami keng va bu muammolar hali hamon to‘laligicha bartarf etilmagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasida ish o‘rinlarini ko‘paytirish, yoshlar ta’limi uchun keng imkoniyatlar yaratish, mintqa davlatlari o‘rtasida

chevara xavfsizligi hamda terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlikni mustahkamlash, strategik dasturlarni ishlab chiqish – mintaqadagi ichki va tashqi xavflarni bartaf etadi hamda mintaqaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ионова Е. Об угрозе терроризма в Центральной Азии // «Россия и новые государства Евразии», – Москва: ИМЭМО РАН, 2015 г., № 4.
2. Казанцев А.А. Политика стран Запада в Центральной Азии: ключевые характеристики, дилеммы и противоречия: Монография. – Москва: МГИМО-Университет, 2009.
3. Алешин Ю. Национальная безопасность новых независимых государств на постсоветском пространстве (на материалах стран Центральной Азии): Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. – Бишкек: 2011. – 24 с.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
5. Фойибназаров Ш. Халқаро терроризм: илдизи, омиллари ва манбалари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2013. – Б. 168-169. – 312 б.
6. Искандаров А. Безопасность и интеграция в Центральной Азии: роль ОДКБ и ШОС. // Журнал Центральная Азия и Кавказ. Том 16, Выпуск 2, 2013.